

Dasturning e'tiborli tomoni shundaki, unda maktabgacha ta'lim muassasalarida 5-6 yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha 6100 ta qisqa muddatli guruhlarini tashkil etish, 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan qishloq joylarida maktabgacha ta'lim muassasalarini yangidan qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, jihoz, o'quv-metodik qo'llanmalar va mul'timediali vositalar bilan ta'minlash vazifasi belgilab berilgan.

Shu bilan birgalikda, maktabgacha ta'lim muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, shuningdek o'yin maydonchalari, bolalar ayvonchalari qurish nazarda tutilgan.

Dasturda yuqorida qayd etilganlardan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalarini jihozlash, mol-mulkidan samarali foydalanish hamda malakali kadrlar bilan ta'minlash ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Республикамизда мактабгача таълимни ташкил этиш ва мактабгача таълимда таълим-тарбия жараёнини такомиллаштиришда қуйидагиларга эътибор беришимиз керак:

1. Мактабгача таълим муассасаларида logoped va psixologlar faoliyatini jonlantirish kerak.

2. Мактабгача таълим муассасаси mudiralarning ma'lumot darajasi aynan maktabgacha ta'lim mutaxassisligiga mos bo'lishi zarur.

3. Bolalar bilan individual ishlashga amaliy jihatdan yondoshish payti keldi.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim sohasi barkamol avlod tarbiyasining poydevori hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, takomillashtirish chora-tadbirlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim-tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. 3-yanvar. 2017 yil
2. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun (T., 1997).
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (T., 1997).
4. Maktabgacha ta'lim sohasida chiqarilgan farmon buyruq, farmoyishlar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar, boshqa direktiv va me'yoriy hujjatlar.

Hasanova Navbahor Xamraqulovna
(Jizzax, O'zbekiston)

O'ZBEK MILLIY MUSIQA MEROSI TARAQQIYOTIDA XOTIN- QIZLARNING O'RNI

Аннотация. В статье рассматриваются роли женщин в прогрессе узбекской национальной музыки.

Ключевые слова: народное музыкальное наследие, образование, воспитание, общеобразовательные школы, педагогическая потребность и критерий.

Abstract. *In the article discusses the role of women progress of Uzbek national music.*

Keywords. *People's musical heritage, education, secondary schools, educational need and criterion.*

Har bir xalqning milliy musiqa merosi shu xalqning milliy xususiyatini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Milliy musiqa meros esa, shu xalqning paydo bo'lish va shakllanish tarixi jarayonida to'planib boradi. Qaysiki xalqning milliy musiqa merosi boy va rang - barang bo'lsa, bu xalqning tarixi qadimiy hamda ma'naviy jihatdan barkamol ekanligidan dalolat beradi.

O'zbek xalqining milliy musiqa merosi juda boy va rang - barangdir. Bu meros tarkibida maqomlardan tortib yallalargacha, baxshi shoirlarimiz kuylab o'tgan dostonlardan to'lapar va o'lanlargacha, shuningdek operalardan to'romanslargacha, teatr va kino san'atidan zamonaviy estrada san'atigacha bo'lgan ko'plab janr va sohalarda yaratilgan minglab musiqiy asarlar o'rin olgan. Hatto undan bolalar uchun yaratilgan musiqa asarlari ham shular jumlasiga kiradi.

Mana shunday qadimiy va navqiron musiqa madaniyatimiz shakllanish jarayonini hamda uning bundan keyingi ravnaqini xotin - qizlarimizning faol ishtirokisiz, ularning fidoiylilik va jonbozlik bilan qo'shayotgan hissalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa milliy raqs san'atimiz taraqqiyotida ularning o'rni beqiyos kattadir.

Bizga ma'lumki, musiqa san'atimizning qo'shiqchilik, cholg'u ijrochiligi sohalari kabi raqs san'atimiz ham qadimiy va boy tarixga ega. Qadimda xonliklar saroyida o'tkaziladigan bazm kechalari musiqa san'atining bu turlarisiz o'tmagan va bu tadbirlarda xotin - qizlarning raqs san'ati muhim o'rin egallagan. Ma'lumki XX - asr boshlarida o'zbek milliy teatr va kino san'atiga asos solindi. Dastlab o'zbek musiqali dramalari va kino asarlari paydo bo'ldi. Bu yo'lda uchragan qiyinchilik va to'siqlarga qaramay ko'plab asarlar sahna yuzini ko'rdi. Bu ishda Tamaraxonim, Nurxon Yo'ldosheva, Halima Nosirova, Sora Eshonto'rayeva kabi xotin - qizlarimiz bosh bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ular safiga Saodat Qobulova, Nazira Ahmedova, E'tibor Jalilova, Farog'at Rahmatova kabi xonanda - aktrisalar qo'shildilar. Shuningdek, raqs san'atida ham ko'plab xotin - qizlarimiz yurtimiz dovrug'ini jahonga yoyishdek xayrli ishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Ular orasida Tamaraxonim va Mukarrama Turg'unboyeva ilk qaldirg'ochlar bo'lib, zamonaviy o'zbek raqs san'atini balet sohasida Galiyaxonim Izmaylova, Bernora Qoriyeva milliy raqs san'ati yo'nalishida Malika Axmedova, Qizlarxon Do'smuhammedova, Gulchehra Foziljonova, Ma'mura Ergasheva va boshqalar ijodlarini misol keltirsak bo'ladi. Yuqorida nomlari tilga olingan san'atkorlarimiz o'z ustozlari izidan borib juda ko'plab ashula va raqs ansambllariga rahbarlik qildilar va o'zbek milliy san'atimizni yuqori cho'qqilarga olib chiqdilar. Ular orasida eng mashhur bo'lganlari M. Turg'unboyeva nomli "Bahor" ashula va raqs ansambli, "Lazgi", "Shodlik", "Yalla" estrada ansambli, G. Toshmatov nomli O'zbekiston televideniysi va radiosi qoshidagi "Dutorchi qizlar" ansambli, shuningdek yakkaxon estrada xonandalari N. Abdullayeva, H. Rahimova, G. Mamazoitova va boshqalar o'zlarining musiqiy ansambllari bilan ko'plab xorijiy mamlakatlarga gostrol safarlarini uyushtirdilar. Bu xonandalar va ular yetakchiligidagi ansambllar milliy qo'shiqchiligimiz, musiqiy asarlarimiz, cholg'u sozlarimiz, milliy kiyilarimiz milliy tilimizni dunyo bo'ylab targ'ib qildilar. Ular orasida O'zbekiston xalq artisti Munojat

Yo'ldiyevaning o'zini alohida bo'lib, u milliy klassik qo'shiqchilik va maqom san'atimizni dunyo bo'ylab tanitishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

Respublikamiz mustaqilligining ilk yillaridan boshlab xotin-qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning salomatligini mustahkamlash, bir so'z bilan aytganda ularning turmush va mehnat sharoitlarini har tomonlama yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar samarasini bugun har jihatdan yetuk va sog'lom farzandlarimiz timsolida hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Ayollari sog'lom, yuksak ahloq va e'tiqodli, bilimdon, harakatchan elning farzandlari har tomonlama yetuk, barkamol, kelajagi nurafshon bo'lishi aniq. Bu borada O'zbekiston xotin - qizlariga, aziz va muxtarama opa singillarimizga havas qilsak arziydi. Chunki, musiqiy madaniyatimiz taraqqiyoti va kelajakdagi ravnaqi yo'lida hormay - tolmay xizmat qilayotgan xotin - qizlarimiz juda ko'p bo'lib, nomma - nom sanab o'tishimizning imkoni yo'q. Yuqorida musiqa madaniyatimizning rivojlanish tarixida munosib iz qoldirgan, xalqimiz orasida mashhur, yurtimiz dovrug'uni dunyoga taratishga katta hissa qo'shgan xotin-qizlarimizdan ayrimlarinigina nomini keltirdik.

Mustaqilligimiz davrida yoshlarimiz sportning turli sohalarida dunyo musoboqalarida g'oliblikni qo'lga kiritganligi kabi musiqaning cholg'u ijrochiligi va xonandalik sohalarida ham dunyo, ayniqsa Yevropa mamlakatlarida o'tkazilayotgan nufuzli ko'rik- tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritib, yurtimiz dovrug'ini oshirmoqdalar. Albatta ular orasida o'g'illarimiz qatorida muhtarama opa - singillarimiz ham bor.

O'zbek xotin - qizlari qadimdan har ishda jon kuyar, oilaparvar, mehnatsevar, iymon - e'tiqodli, bolajon bo'lib, bu borada o'zga yurtlar, ayniqsa yuksak taraqqiyotga erishgan mamlakatlar xotin-qizlari ham havas qiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. A. Odilov. O'zbek milliy cholg'ulari ijrochilik tarixi.
2. H. Hamidov. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. Toshkent. O'qituvchi nashr 1996 yil.
3. R. Tursunov. Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti. Toshkent ma'rifat-madadkor nashr 2002 yil.
4. M. Abduraxmonov. Ma'naviy salohiyat. Toshkent. O'zbek. milliy Universiteti 2009 yil.

Шарипов Ф., Нормуродов К.
(Жиззах, Узбекистон)

ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИНОВАТСИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН Фойдаланиш

Хаммамизга маълумки педагогика назарияси ва амалиётида, таълим тарбия жараёнида кўплаб ёндашувлар мавжуд. Анъанавий ўқув жараёнида биз кўпроқ ўқитувчининг маҳоратига суяниб самарага эришишга ҳаракат қиламиз. Бунинг учун эса педагог маълум даражада тажриба орттирган бўлиши талаб этилади. Педагогик технологиянинг асоси эса лойиҳалаштиришдир. Мана шу нуқтаи назардан келиб чиққан ҳолда айтиш